

ERKIN VOHIDOVNING "RUHLAR ISYONI" ASARI -- BEBAHO MA'NAVIY XAZINA

Rohat Haitova,

Buxoro viloyat Vobkent tuman "Barkamol avlod" bolalar maktabi direktori

Ibodot To'rayeva,

Buxoro viloyat Vobkent tuman 20-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Zubayda Narziyeva,

Buxoro viloyat Vobkent tuman 6-son IDUMI ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Inobat Vaxobova,

Buxoro viloyat Vobkent tuman 7-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Nurjahon Husenova,

Buxoro viloyat Vobkent tuman 26-maktab tarix fani o'qituvchisi

Muhayyo Shoyimova,

Buxoro viloyat Vobkent tuman 20-maktab o'quvchisi

“Biz o'z yerimizda faqat azob bilangina, azob orqaligina
chinakam mehr-muhabbatga noil bo'lamiz”.

“Kulgili odaning tushi” hikoyasidan

Har bir inson bu hayotda yashar ekan, olam gulbog'iga yo bir yengil epkindek, yoki tanga hajmidagi soyacha bo'lsa ham, ta'sir ko'rsatadi. Azal hukmi tuhfa qilgan soatlarning qaysidir daqiqasi bilan o'z umrini jovidonlikka iladi. Bu borada ijod ahlining imkoniyati mo'loq: Tangrining nazri bo'lgan iste'dodi bilan minglab ko'ngillarni yillab, asrlar osha xushnud qila oladi.

“Qancha qog'ozlarning boshiga yetdim, Va lekin Lermontov chiqmadi mendan” satrlari bilan o'z ijodiga kamtarona baho bergan o'zbek she'riyatining “yuragi” Erkin Vohidov she'riyat ixlosmandlari qalbida tom ma'noda shunday o'chmas iz qoldirdi. Garchand nazm shinavandalari bir qadar kamayib, Ovro'pa futbol muxlislari sezilarli ko'paygan bo'lsa-da, shoirning yangi mahsullaridan mosuvo, biroq bor ijodini tashnalik bilan yod oluvchi mushtariylar ko'plab topiladi. Ijodkorning nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham sevib o'qiladigan, jajji bolalarning ham beg'ubor xotirasiga muhrlanib, chuchuk tillari bilan aytadigan eng mashhur asari, shubhasiz, “Ruhlar isyoni” dostonidir. Ushbu asar XX asr o'zbek dostonchiligining “eng vazmin toshi”, eng yoniq porlagan yulduzi, faxr-u sharafidir.

Shoirman degan kishi o'z davrining tepib turgan yuragi bo'lishi shart ekan. Erkin Vohidov ham mustaqillikkacha bo'lgan g'alayonli o'n yilliklar kayfiyatini eng yorqin va to'la ifoda qilgan ijodkor edi. Mazkur davrda sotsializm parchalanib, kapitalizm kirib kela boshlagan, natijada inson va uni o'rab turgan muhit kayfiyati o'zgargan, shu jihatdan, ko'ngil she'riyati ijtimoiy buyurtmalar bilan “dunyoga kelgan” g'oyaparast poeziyadan bir qadar charchagan adabiy tanglik hukmron edi. XX asrning 1-yarmida yashab o'tgan olovqalb hind shoiri Nazrul Islomga bag'ishlangan mazkur doston bu tanglikni to's-to's qilib yubordi.

Dostonda hind xalqini oqsuyak ingliz istibdodidan omon bo'lishin istagan, o'z xalqini ham shu istak ro'yobi uchun uyg'oqlikka chorlagan, so'ngra shu chorlovga to'lov sifatida o'z erkidan mosuvo qilingan Nazrul Islomning tutqunlikdagi achchiq qismati, qismatidan-da achchiq o'y-xayollari birma-bir hikoya qilina turib, muallif ora-sira o'quvchi diqqatini insoniyat tarixidagi turfa xil rivoyatlarga qaratadi. Har bir belgi, har bir harfda adabiy niyati uchun xizmat qilishini hisobga olsak, bu rivoyatlar maqsadsiz qo'llanilmaganini anglaymiz. Dostonning bosh g'oyasi ham Nazrul Islomning ayanchli qismatini yoritish emas, bashariyatning diqqatini ikki toifaga qaratish: oq va qora, yorug'lik va zulmat, ma'rifat va jaholat, istibdod va ozodlik...shu bilan birga, muallif o'quvchi nigohini strelka harakati bo'ylab turfa voqealar, taqdirlar, tasvirlarga qaratar ekan, ularga ozodlikning eng ulug' ne'mat ekanligini, uni asrash, yaltiroq yovlarga boy berib qo'ymaslik zarurligini, ozod bo'lib tug'ildigini, ozod bo'lib qolish lozimligini uqtiradi.

Dostonda turfa masalalar yoritilgan: abadiyat, shoir qalbi, isyon, fidoyilik, tutqunlik, istibdod, ozodlik, shoh ota va shoh o'g'il, zohidlik va oriflik, oliy ruhlar kabi rang-barang mavzular alohida fasllarda tekshirib chiqiladi,. Garchi bu mavzular davr, g'oya, qismat nuqtayi nazaridan bir-biridan uzoq bo'lsa-da, muallif o'z tafakkur yo'sini bilan barchasini bir nuqtada tutashtiradi: istibdodga toqat qilmagan, ozodlikni hamma narsadan ustun qo'ygan isyonkor qalb tasavvur oynamizda gavdalanadi. Bu qalb

Umring uzun bo'lsa – rahmat,

Agar kamdir, shukr qil,

deya abadiyat suvini tuproqqa to'kadi, foniy umrni tanlab o'zi anglagan, o'zini-da anglagan insonlar erki uchun mardonavor kurashga chog'lanadi. Kurashda esa raqib tomonning mavjudligi muqarrar va zarur. Tasavvuriy qahramonimiz ham „oq o'rgimchakdek“ o'z millatining qonini so'rayotgan yovlarga qarshi isyon qo'shig'ini kuylab, fidoyilik rivoyatiga qahramon bo'ladi. Ozodlik uchun kurash, qaramlikka qarshi turish hamisha tutqunlik qismati bilan qo'l ushlab yuradi. Bu qora hamroh olovqalbning ongi va ruhini ezsa-da, u o'z ravishini o'zgartirmaydi. Shohjahon va Avrangzeb, Oliy ruhlardan madad oladi, pokiza va ozod ruhi tor zindon to'siqlarini pisand etmasdan ko'klarga ko'tariladi. Shu o'rinda uni zindonband etganlar yovlar emas, jaholat botqog'iga botgan olomon ekanligini va shuning barobarida dostonning asl mag'zi shu rivoyatda mujassamlashganini anglab yetasiz.. Odamzodning tavr shunday: o'zidagi ne'matlar qadrini ularni boy bergach tushunib yetadi...borlig'ini to'ldirib turgan go'zalliklarni oyoq uchida ko'rsatib, toptaydi-yu, yo'qotgach, bez yoshlarini selob qilib, ayyuhannos soladi. Lekin nadomatdan kim naf topibdi: xasta taniga shifo bergan donishmand hakimni o'tda kuydirib, so'ng o'zi ham pushaymonlik olovida kuyan johil olomonning ahvoli o'quvchining qahrli istehzosiga bois bo'ladi. Biroq ne bo'lganda ham, o'sha johil olomon o'z qilmishini tezda anglab yetadi va bu, fikrimizcha, rivoyatlardagina uchraydigan holat. Ayovsiz haqiqat shuki, biz qilmishimizdan so'ng ham, ma'rifatni anglab yetmaymiz, ongsizlarcha o'z ixtiyorimiz bilan boy bergan imkoniyatlarimizga e'tibor bermay masaldagi kabi do'ppisini suvga tushirib yuborib, „ha, mayli, o'zi boshimga tor kelib qolgandi“, qabilida ko'nglimizni ovutamiz. Boshqa choradan foyda bormi, dersiz, qadrli o'quvchi? Haqsiz. Ammo sodda fikrimizcha, o'z johilligini anglab yetish mavjud holatni o'zgartirmasa ham, galdagi harakatlarimizga qizil chiroq vazifasini o'taydi.

Shu jihatdan ham, ushbu doston tariximizga tutilgan oyna, deyishga asosimiz bor. Zero,

Ha, zulm bor, haqsizlik bor,

Bu barchaga ayondir.

Lekin buni zinhor-zinhor

Aytib bo'lmas zamondir,

satrlaridagi qo'shtirnoq mutlaqo shartli bo'lib, o'tgan asrda xalqimizning zabun kechmishini anglatib turibdi.

Yetmish sahifaga ham yetmaydigan bu qisqagina sermazmun yuqoridagi maqsur fikrlarimizdangina iborat emas, albatta. Hattoki dostonning har bir bobini alohida kitob holida tahlil qilish mumkin. Chunki unda yolg'on yo'q, tasavvuringizni avrab qo'yadigan badiiy illuziyadan xoli, og'riqli tariximizning o'zga yurt oynasidan ko'rsatilgan tasviridir. Zotan, Nazrul Islomning isyonkor hayqirig'i “qayinbarglar yuzini yopgan” Usmon Nosirning

Itoat et!

Agar sendan

Vatan rozi emas bo'lsa,

Yoril!

Chaqmoqqa aylan sen!

Yoril! Mayli,

Tamom o'lsam!

yoki hukmsiz haqsizlarcha otilgan Fitratning “Yel yuzini to'sib turgan eski bulutlarni Yondirib qo'y, yirtib tashla, barchasin yo'q et. Qilolmasang bu ishlarni, Sening uchun xo'rlikdir bu, Yiqil, yo'qol, ket!” kabi fig'onlarining aks-sadosi emasmi?

“Ruhlar isyoni” shu jihatdan ham, ozodlik yo'lida shirin jonidan kechgan ajdodlarimiz haqidagi, umuman, barcha xalqlar taqdiriga dahldor umuminsoniy dardning hazin qo'shig'idir.